

ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ КОРХОНАЛАРИДА МАҲСУЛОТ СИФАТИНИ БОШҚАРИШНИ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Байтанов Ўралбой Мирақул ўғли

Андижон давлат унуиверситети

мустақил изланувчиси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10776387>

Аннотация

Мақолада озиқ-овқат саноати корхоналарида маҳсулот сифатини бошқаришни узоқ хорижлик иқтисодчи олимларнинг қарашларининг назарий асослари ҳамда тадқиқотлар асосида муаллифлик ёндашуви ёритиб берилган.

Калит сўзлар: сифат, сифат менежменти, озиқ-овқат саноати корхоналар, сифат менежменти тизимини бошқариш.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев мамлакатнинг иқтисодий ривожлантириш йўналишларига тўхталиб, “барқарор иқтисодий ўсишнинг энг муҳим гарови – рақобатдош маҳсулотлар ишлаб чиқариш, улар учун янги халқаро бозорлар топиш ва экспортни кўпайтириш, транзит салоҳиятидан тўлиқ фойдаланиш мақсадида 2020 йилда 3 мингга яқин стандартларни қабул қилиш, уларнинг сонини 10 мингга ва халқаро стандартлар билан уйғунлашиш даражасини 40 фоизга етказиш даркор” деб таъкидлаганлар[1]. Бундан кўриниб турибдики мамлакатда озиқ-овқат саноати тизимида ҳам халқаро стандартлар асосида сифат менежментини жорий этиш механизмининг янада такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга.

Бугунги кунда иқтисодий адабиётда маҳсулот сифатига нисбатан кўп сонли ва турли илмий қарашлар шаклланиган. Маҳсулот сифати иқтисодий категориясининг мазмун моҳияти вақт этиши билан такомиллашиб, янада чуқурроқ мазмунга эга бўлиб келмоқда. Шу билан биргаликда, истеъмолчиларнинг маҳсулот сифатига нисбатан бўлган қарашлари ҳам такомиллашиб бориши маҳсулот сифати иқтисодий категориясига нисбатан илмий қарашларнинг янада чуқурроқ мазмунга эга бўлишига сабаб бўлган.

Маҳсулот сифати тушунчасининг шаклланиш тарихига назар соладиган бўлса, эраиздан аввалги III асрларда Аристотель асарларида унга нисбатан илмий қарашлар мавжуд эканлигини кўришимиз мумкин. Олим маҳсулот сифатини тушунтиришда улар ўртасидаги ўзаро фарқлар мавжуд бўлиши сабабли уларни яхши ёки ёмон белгилари сонидан келиб чиқиб, маҳсулот сифатини аниқлаш мумкин, деган фикрни илгари сурган.¹

Шу билан биргаликда, замонавий менежмент назарияларида маҳсулот сифатини бошқариш бўйича илмий қарашлар XX асрнинг 60 йилларидан бошлаб кескин ривожлана бошлади. Бунинг натижасида маҳсулот сифатини бошқариш жараёни билан боғлиқ бўлган илмий қарашларни қуйидаги уч йирик ривожланиш босқичлари шаклланди, деб ҳисобланади:

- 1960-1980 йилларда корхоналарда сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришга устуворлик қаратилди. Сифат менежментини тушунтиришдаги иқтисодий қарашлар асосан маҳсулот сифати билан изоҳланган;

¹ Беляев В.С. Как управляют качеством. М.: “Московский рабочий”. 1987. – 156 с.

- XX asrning 80 yillaridan asr sўngigiga qadar bўlgan davrda korxona da mahsulot sifatini boʻshqari sh jaraʼnida unga taʼsir kўrsatuvchi omillar ni aniqlash asosida sifat menejmenti tizim sifatida baʼholana boʻshladi;

- XXI asrning boʻshlarida an bugin gi kunga qadar bўlgan davrda mahsulot ishlab chi qari sh sifatiga inson omilining taʼsiri va uning sifat kўrsatkichlarini (taʼlim, intellektual resurslar, kasbiy kvalifikasiya va x.k.) takomillashi rishga ustuvorlik qarati la boʻshlandi. Ushbu bosqich global dara ja da inson kapitali konsepsiya sining rivojlani shi natijasida mahsulot ishlab chi qari sh jaraʼniga insonlar ning aqliy va jismoniy ish tiro ki chegaralarida gi sodir bўlgan ўzgarishlar sababli rivojlangan hisoblanadi.²

Yuqorida kel ti ri b ўtilgan zamonaviy menejment nazariyalarida mahsulot sifatini boʻshqari sh bўyicha ilmiy qarashlar ning rivojlani sh bosqichlarining ўziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aйти sh mumkin ki, bugin gi kunda korxona tomonidan sifatli mahsulot ishlab chi qari shni taʼminlani shi uchun avvalo korxona da ichki sifat menejmenti tizimini shakllanti ri sh тала b этилади, degan xulosaga keli sh mumkin bўladi.

Shu ўrin da aйrim iqtisodchi olimlar tomonidan korxona da mahsulot sifatini boʻshqari sh bўyicha bil dirgan ilmiy qarashlariga eъtiбор ni qarati sh maqsad ga muvofi q deb hisoblay mi z. Iqtisodiy ada biёт da ilk bor AQSh iqtisodiy mak ta bi va ki li Дж. Джуран tomonidan mahsulot sifatini boʻshqari sh bo ra si da gi ilmiy qarashlar shakllangan. Uning fikricha, “mahsulot sifati uning isteʼmol uchun yaroqli li gi bi lan i zo x la na di. Shu sababli korxona tomonidan ishlab chi qari laётган жа mi mahsulotlar ha j mi da qan cha lik isteʼmol ga yaroqli mahsulot ulu shi kўp bўl sa, korxona da mahsulot sifatini boʻshqari sh ama liёт i shu dara ja da tўgri йўl ga kўy ilgan bўladi”³. Mazkur ilmiy qarash mahsulot sifatini boʻshqari sh bi lan boғli q bўlgan das tla b ki ilmiy qarashlar qato ri dan ўrin e gal la gan li gi sababli, fa qat gi na mahsulot ning isteʼmol ga yaroqli li gi ga (ya ni, brak e ki isteʼmol ga yaroqli) eъtiбор qarati lgan. Ushbu ho lat ishlab chi qari sh jaraʼnlarining texni k va tex no lo gi k ji ha t dan rivojlani sh dara ja si bi lan boғli q hisoblanadi. Ya ni, mahsulot ishlab chi qari sh jaraʼnida fой da la ni laётган texni ka va tex no lo gi ya lar ishlab chi qari laётган mahsulotlar sifatini tўli q taʼmin la sh im ko ni ni ber ma gan. Shu sababli ha m, ўsha davrlar da ishlab chi qar il gan mahsulot ning isteʼmol ga yaroqli li gi uning sifatini baʼho la sh uchun eta rli deb hisob lan gan.

C.E. Shepetova esa mahsulot sifatini boʻshqari sh da korxona tomonidan ishlab chi qari laётган mahsulot uchun ўrnat il gan mil liy va xal qaro stan dart lar tizimi ga muvofiqli k dara ja si ga aso sla na di. Uning fikricha, “Har qan da y mahsulot uchun sifat kўrsatkichining bel gi lan gan nor ma si, ya ni stan dart i bўli shi тала b этилади. Mahsulot sifatini boʻshqari sh jaraʼni ushu nor ma ga e ri shi sh uchun korxona tomonidan sifat nor ma si ni va unga e ri shi sh uchun qili n gan ijtimo iy-iqtisodiy hat ti ha ra ka tlar ma j mu a si dan ta sh ki l to pa di”⁴. Ushbu ilmiy qarash zamonaviy

² Окрепилов В.В. Управление качеством. М.: «Экономист», 2018. – 639 с.

³ Joseph M. Juran, A. Blanton Godfrey. Juran’s Quality Handbook. – 5th edition. New York: McGraw-Hill. 1998. 1698 p.

⁴ Шепетова С.Е. Менеджмент и экономика качества. М.: URSS, 2006. – 485 с.

менежмент соҳасида маҳсулотлар сифатини таъминлаш нафақат мамлакат ички бозори балки халқаро бозорларда ҳам устувор аҳамият касб этишидан далолат беради. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, сифатни бошқариш нархсиз рақобат шакли бўлиб, рақобат курашининг чуқурлашуви шароитида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар сифати мунтазам такомиллашиб боровчи кўрсаткич ҳисобланади. Шу сабабли, унга нисбатан қўйиладиган меъёрлар ва стандартлар ҳам маълум бир вақт ўтгани сари ўзгариб, тобора мураккаблашиб боради. Ушбу илмий қараш маҳсулот сифатини яхшилаш бўйича инновацион ишланмалар, илмий тадқиқот ишларини ўтказиш нисбатан секин ривожланаётган давлатлар учун хос, деб ҳисоблаш мумкин бўлади. Чунки тараққий этган мамлакатларда корхоналарнинг инновацион фаоллик даражаси юқори бўлиши билан биргаликда, улар мунтазам ўзлари томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар сифатини такомиллаштириш бўйича илмий тадқиқотларни ўтказиб борадилар. Бундай корхоналар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар учун ўзлари тегишли меъёрлар ва стандартларни ишлаб чиқадилар.

Маҳсулот сифатини бошқариш бўйича иқтисодий адабиётда шаклланган илмий қарашларни тадқиқ этиш асосида “сифат” тушунчасининг иқтисодий моҳиятини қуйида келтирилган тартибда намоён бўлиши мумкин, деб ҳисобаймиз:

- корхонадаги ишлаб чиқариш ва меҳнат самарадорлиги;
- ИТТКИларнинг амалиётга жорий этиш тезлиги ва аниқлиги;
- юқори малакали ҳодимлар ва юқори даражадаги техник-технологик жиҳатдан қуролланиш ҳисобига эришилган самарадорлик кўрсаткичлари;
- узоқ муддатли ривожланишнинг пировард натижаси;
- молиявий ресурсларни тўғри йўналтирилиши (яъни, маҳсулот сифатини ошириш чора-тадбирларини молиялаштириш самарадорлиги);
- корхона хўжалик фаолиятининг оптималлашуви ва рақобат устунлигининг кучайиши;
- истеъмолчилар эҳтиёжини қондириш даражаси ва ҳ.к.;

Фикримизча, корхонада маҳсулот сифатини бошқариш унинг бозордаги мавқеини белгилаши ва истеъмолчиларни қамраб олиш даражасини оширишга хизмат қилади. Бугунги кунда рақобат курашининг тобора чуқурлашиб бориши корхоналар бошқарувчи тактик бошқарув усулларида фойдаланиш самарадорлигини ошириш заруриятини кучайтирмоқда. Шу сабабли, мамлакатимиз иқтисодиётининг ҳозирги ривожланиш босқичида маҳсулот сифатини бошқариш иқтисодий категориясига нисбатан тактик ёндашув асосидаги муаллифлик таърифини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз ва унга нисбатан қуйидагича тариф берамиз: “маҳсулот сифатини бошқариш – бозордаги талаб ва таклиф, корхонанинг ишлаб чиқариш имкониятлари, рақобатчилар сони ва улар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар сифатига асосланган ҳолда, корхона томонидан ишлаб чиқарилаётган товар ва хизматларнинг сифат кўрсаткичларини мунтазам назорат қилиш, уларни такомиллаштириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш, уни амалга ошириш билан биргаликда, молиялаштириш бўйича муносабатлар тизимини англатади”.

References:

1. Беляев В.С. Как управляют качеством. М.: “Московский рабочий”. 1987. – 156 с.
2. Окрепилов В.В. Управления качеством. М.: «Экономист», 2018. – 639 с.
3. Joseph M. Juran, A. Blanton Godfrey. Juran’s Quality Handbook. – 5th edition. New York: McGraw-Hill. 1998. 1698 p.
4. Шепетова С.Е. Менеджмент и экономика качества. М.: URSS, 2006. – 485 с.